

TIBBIY BIRLIKLAR VA ULARDA TILNING GENDER IFODASI

Navruzova Muyassar Gaybullayevna

Buxoro davlat universiteti

boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8412555>

ANNOTATSIYA

Dunyo folklorshunosligida ham xalq tabobati bilan bog'liq obrazlar borligi, ularning so'z sehriga ishonchdan kelib chiqqani, janr xususiyatlari alohida e'tirof etilgan. Shu sirada xalqlar folklori tilida uchraydigan tibbiy birliklarning arxaik, tarixiy hamda zamonaviy, gender turlarini dalillash, leksik-semantik jihatdan tasniflash, morfologik strukturasi kuzatish, lug'atlashtirish tamoyillarini aniqlash, etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlarini bevosita folklor asarlari misolida oydinlashtirish dolzarb masalalar qatoriga kiritilmoqda. Maqolada ayollarda uchraydigan turli xil kasalliklar, ularning gender lingvistikasi haqida so'z borgan. Shu bilan birga, xalqning "ayol homiy ruh" haqidagi qarashlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: folklor, xalq tili, obraz, ayol obrazi, gender, gender lingvistikasi, momo ruhlar, kinna.

Dunyo olimlari olam asosida to'rt unsur (yer, havo, suv, olov) yotishini e'tirof etishgan. Ma'lumotlarga qaraganda, "er, erkak" so'ziasliboshda "yer", Xudo erni, so'ng u bir o'zi yolg'izlanmasligi uchun uxlab yotganida jufti havoni qovurg'asidan yaratgan. Ularning ilk maskani bo'lgan "Bog'i Eram" (ruschada "эдем", ya'ni "zemlya" so'zi bilan o'zagi bir) ham asli "Bog'I Eram". Mahmud Koshg'ariyning devonida ham "er" so'zi "odam" ma'nosida qayd qilingan. Shuningdek, tabiatda faqat suv uch holatga ega: qattiq, suyuq va gaz. "Xotin-qiz" iborasidagi "qiz" so'zi "qizimoq" fe'lining buyruq mayli, bu "xotin" so'zining ham ma'nosi "o't" deyishga asos bo'ladi. Shuningdek, arabcha "ayol" so'zi ham turkiy "yal, yol" (yolqin) so'zibilan, ruscha "женщина" so'zi turkiy "jan, yon" (yonmoq) so'zi bilan o'zakdosh bo'lsa, ehtimol. Qolaversa, inglizcha "hot" ([xot] issiq), "hades" ([heyds] do'zax, otash), ruscha "ад" so'zlari turkiy "o't" so'ziga, inglizcha "terra" ([terra] terra, tuproq) so'zi turkiy "turpoq" so'ziga o'zakdosh. Shuning uchun ham, erkaklarda yer-tuproqqa xos og'ir-vazminlik, chayirlik, dag'allik, qattqlik jihatlari bo'lganidek, ayollar havo va suvga (havo va suv mohiyatan bir-biriga juda yaqin) xos yumshoqlik, havoyilik, muloyimlik sifatiga ega [1]. G.A.Vildanova o'z tadqiqotida evfemizmlarning gender xoslanishida faqat ayollar bilan bog'liq holatlarini o'rganadi [2].

Gender lingvistikasi – tilning ijtimoiy-sotsial aspektlari, shaxs biologik xususiyatining tilda namoyon bo'luvchi omillarini tadqiq etuvchi soha. Tilning gender tadqiqi yo'nalishida Y.I.Goroshko, Y.S.Grisenko, Y.A.Zemskaya, M.A.Kitaygorodskaya, N.N.Rozanova, O.L.Kamenskaya, D.Tannen, G.Y.Kreydlin, J.Koats, R.Lakov, A.V.Kirilina, Y.A.Zdravomislova, A.A.Temkina, A.V.Poplevko, Y.P.Nadolskaya olib borgan tadqiqotlar diqqatga sazovor.

Gender – jinsning madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimiz. O'zbek muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishi haqida tadqiqotchi S.Mo'minovning fikrlari ham e'tiborga loyiq. Olim gender omilini nutqning o'ziga xosligini aniqlashning muhim jihati deb qaraydi [3]. Tadqiqotchi G.A.Vildanova evfemik so'zlar lug'atida "ayol" va u bilan bog'liq tushunchalar muhim o'rin egallashini ta'kidlaydi. N.G'aybullayeva [4] o'z tadqiqotida tibbiy evfemizmlarning gender xususiyatini quyidagicha

1) erkaklarga xos belgi, kasallik, fiziologik holat; 2) ayollarga xos belgi, kasallik, fiziologik holat; 3) neytral birliklarga oid tibbiy evfemizmlarga izoh berib o'tadi.

Ayollarning jinsiy a'zolarida uchrovchi kasallik va fiziologik holat nomlari bilan bog'liq evfemizmlarni tadqiqotchi Sh.Gulyamova o'z tadqiqotida quyidagicha tahlilga tortadi. Ayollar kasalliklariga metrit ([yun. metra – bachadon] – bachadon mushak qavatining yallig'lanishi), endometrit (bachadon shilliq qavati – endomstrining yallig'lanishi), endometrioz (bachadon naychalari, spaykalarining yopilib qolishi, o'tkazuvchanligining kamayishiga, immunologik muammolarga sabab bo'lib, urug'lanish jarayoni va embrion implantatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi), adneksit (bachadon yo'llari va tuxumdonlarning yallig'lanishi), mastit (odam sut bezining yallig'lanishi; kasallik aksariyat tuqqan ayollar va homiladorlarda kuzatiladi) kabilar kiradi va ularning ilmiy nomi evfemik xarakter kasb etadi.

Ayolning hayz ko'rishi xalq orasida quyidagi muloyim evfemizmlar orqali ifodalanadi: xola tashrifi, rangli televizor, qizil armiya, bayram, oy boshi va h.k. [5]

Tadqiqotimizda xalqning "ayol homiy ruh" haqidagi mifologik qarashlari momo obrazining kelib chiqishiga asos bo'lganligi izohlaniladi. Xalqning tasavvuricha, momolar ruhi ayollarga, ularning faoliyatida, sog'ligiga hamisha yoru madadkor bo'ladi. Aniqrog'i, uning ildizi ruhlarga ishonchdan iborat animistik tasavvurlar, kult miflari bilan tutash sanaladi.

O'rta Osiyo xalqlari orasida momo ruhlarning nomi juda ko'p. Xalq nazdida Momoyi Kalon – Katta momo barcha momo ruhlarning boshlig'i sanaladi. Boshqa ruhlar unga bo'ysunishi aytiladi.

Yo'lchi momo o'z ajdodlariga yo'lda va safarda homiylik qiluvchi momo ruhdur.

Elchi momo o'z elini qo'llab-quvvatlovchi, tiriklarga yordam ko'rsatuvchi momodir.

Xabarbar momo – xabar eltuvchi, Xabarbiyor momo esa xabar keltiruvchi, yuz berishi mumkin bo'lgan voqealardan oldindan ogoh etuvchi ruhdur. Odatda, folbinlik va baxshilik qiluvchilar uni o'zlariga homiy deb bilganlar. Bu momo ruhlarning har to'rtalasi ham insonlarga ezgulik qiluvchi madadkor ruhlar sanaladi.

To'q momo nomiga tez-tez is chiqarilib, duoyi fotiha o'qib turilgani, ya'ni tiriklar tomonidan vaqtida yo'qlanib, "oziqlantirib" borilgani tufayli o'z avlodlaridan minnatdor bo'luvchi ruhdur.

Gung momo – tirikligida gung, gapira olmaydigan bo'lib yashab o'tgan ayol ruhi. Aytishlaricha, ko'pincha ular shomon ayollarga homiylik ko'rsatarkan.

Momoyi pushti yoki momoi merosi ajdod homiy ruhlardan biri bo'lib, shomonlik qiluvchining marhum ota-onasi, ajdodlari ruhi shu nom bilan yuritilgan. Bu dunyoni tark etgan ajdodlarining kasbidan, boyligidan foydalanadiganlar, odatda, shu momo ruhni homiy bilib, unga sig'ingan.

Gumchi momo yo'qolgan kishilarni va narsalarni topib berishda yordam beruvchi, izlab topishda yo'l ko'rsatuvchi homiy momo timsolidir. U folbin shomonlar sig'inib, madad so'raydigan homiy kuchdir. Ko'rinyaptiki, bu momo ruhlar, asosan, bajaradigan vazifasiga qarab nomlangan. Ba'zi momo ruhlar qo'nim topgan manzil-makoniga qarab nomlangani kuzatiladi. Jumladan,

Kul momo kul orasida,

Gul momo gullar, xususan, qizil atirgul orasida,

Suvchi momo suv havzalarida qo'nim topishi aytiladi.

Bu momo ruhlar ehtiyotsizlik qilgan odamga zarar yetkazishi mumkin. Agar odam kul to'kilgan joydan kechqurun o'tsa yoki u yerdan hojati uchun foydalansa, shuningdek, gul

tagida uxlab qolsa, momo ruhlardan zarar topishi uqtiriladi. Ammo Kul momo va Gul momo hammavaqt ham insonga zarar va ozor yetkazuvchi yovuz, raqib kuch sifatida talqin qilinmaydi. Chunki gul va kuldan o'рни kelganda ezgu maqsad yo'lida ham foydalanish mumkin. Masalan, lolagul, lolaqizg'aldoq, na'matak, atirgul, chuchmomo kabi bir qator gullardan inson salomatligi yo'lida foydalanilishi ko'pchilikka ma'lum. Yoxud kuldan kinnani haydashda, ko'z og'rig'ini davolashda foydalanadilar. Uchuni momo, Hasud momo, Mechkay momo, Kinna momo, Ro'dapo momo va Shalpar momo kabilar ham insonlarga raqib bo'luvchi yovuz momolar qatoriga kiradi.

References:

1. Атаев Ф. Муштарак илдишлар (Тилимиз ҳақидаги шахсий мулоҳазалар). ziyouz.uz
2. Вильданова Г.А. Гендерный аспект эвфемизации (на материале английского языка)// дис... кандидата филологических наук. – Бирск, 2008. – С.193. www.twirpx.com
3. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатдан хосланиши // // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 5-сон, 64-66 б.
4. Гайбуллаева Н.И. Ўзбек тилининг тиббий эвфемизмлари. Монография. 2020. 97-99.б
5. Гуломова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2020. -Б.125.
6. Navruzova, M. (2023). Lexical-semantic features of some medical linguistic units. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
7. Navruzova, M. (2023). O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA TIBBIY BIRLIKLARINING QO'LLANILISHINI KORPUS VOSITASIDA TADQIQ ETISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
8. Navruzova, M. (2023). TIBBIY TERMINLARINING SHAKLLANISH ASOSLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
9. Navruzova, M. (2022). MAQOLLARDA-SOMATIK BIRLIKLAR. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 1(28), 257-265.
10. Navruzova, M. (2023). MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR ASOSIDA TA'LIMDA TIBBIY MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
11. Navruzova, M. (2023). TIBBIYET VA TERMIKOLOGIYA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).
12. Navruzova, M. (2023). NAUCHNO-TEORETICHESKIE I METODOLOGICHESKIE OSNOVY FORMIROVANIYA PSIXOLOGICHESKIX USLUG. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
13. Navruzova, M. (2023). ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИББИЙ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВИСТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 28(28).
14. Navruzova, M. (2021). TIBBIY BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR: TIBBIY BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).
15. Наврузова, М. Г. (2022). ЎЗБЕК ТИЛИДА ТИББИЙ БИРЛИКЛАРНИНГ

ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 788-796.

16. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 144-147.

17. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(9), 132-137.

18. Jobirovich, Y. M. (2023). BUILDING COMPETENCES IN ORGANIZING PRIMARY EDUCATION CONTENT USING DIGITAL TECHNOLOGIES. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 763-766.

19. Jobirovich, Y. M. (2023). EXPRESSION OF DIDACTIC GAMES IN PRIMARY EDUCATION THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 93-97.

20. YARASHOV, M. (2022). BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING DARS JARAYONLARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH VOSITALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 15(15).